

## 2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning 1-dekabr holatiga 19448 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,3 foizga o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3642 ta (24,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 18457 tani tashkil etgan.




## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,6 % savdo, 16,5 % sanoat, 9,4 % qurilish, 8,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa hamda 25,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Urganch shahri (4699 ta), Urganch tumani (2144 ta), Xiva shahri (1713 ta), Xiva tumani (1641 ta) va Xonqa tumani (1502 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (806 ta), Shovot (1000 ta) hamda Bog'ot (1005 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 18457 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3642 ta (24,6 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Savdo-26,7 %



Sanoat-16,5 %



Qurilish-9,4 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi-8,7 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar-  
6,5 %



Tashish va saqlash-3,6 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar  
ko'rsatish-2,3 %




Axborot va aloqa-1,3 %



Boshqa turlari-25,0 %

Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Urganch shahri (4334 ta), Urganch tumani (2034 ta), Xiva shahri (1631 ta), Xiva tumani (1524 ta) va Xonqa tumani (1476 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (786 ta), Shovot (943 ta) hamda Bog'ot (949 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 4617 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2,2 martaga ko'pdir.


## Yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (886 ta), Urganch (620 ta), Xiva shahri (411 ta) va Xazorasp tumani (372 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiariq (233 ta), Yangibozor (241 ta), Bog'ot (261 ta) hamda Shovot (291 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1631 ta), sanoat (895 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (588 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (383 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (51 ta), sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (96 ta) hamda tashish va saqlash (127 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga 15398 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 4916 ta, oilaviy korxonalar - 2372 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 7844 ta va boshqalar 266 tani tashkil etgan.

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 8272 tani tashkil etib, ulardan 7844 tasi yoki 94,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1583 taga yoki 23,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 1989 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1028 taga ko'pdir.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

	01.12.2019 yil		2019-yil yanvar-noyabr oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Jami</b>	<b>8272</b>	<b>7844</b>	<b>1989</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1017	963	299
Sanoat	1437	1356	319
Qurilish	1265	1188	252
Savdo	2598	2474	664
Tashish va saqlash	552	526	99
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	245	231	63
Axborot va aloqa	101	93	25
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	143	139	35
Boshqa turlari	914	874	233

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko'p jamidagi ulushi savdo 31,5 %, sanoat 17,3 %, qurilish 15,2 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 12,3 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari esa axborot va aloqa 1,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1,8 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 2,9 % va tashish va saqlash faoliyat turlarida 6,7 % ga to'g'ri kelgan.

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda



## Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 15306 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 29,7 % ga oshgan.

## Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxona va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxona	Mikrofirmalar
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>15306</b>	<b>926</b>	<b>14380</b>
Urganch sh.	3648	321	3327
Xiva sh.	1499	53	1446
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	721	38	683
Gurlan	932	64	868
Qo'shko'pir	905	33	872
Urganch	1760	127	1633
Xazorasp	1070	57	1013
Xonqa	1225	77	1148
Xiva	1315	40	1275
Shovot	707	48	659
Yangiariq	908	31	877
Yangibozor	616	37	579

## 2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



•Urganch shahri  
23,9 %



•Gurlan  
6,1 %



•Urganch  
11,5 %



•Yangiariq  
5,9 %



•Xiva shahri  
9,8 %



•Qo'shko'pir  
5,9 %



•Xiva  
8,6 %



•Bog'ot  
4,7 %



•Xonqa  
8,0 %



•Shovot  
4,6 %



•Xazorasp  
7,0 %




•Yangibozor  
4,0 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3648 tasi (23,9 %) Urganch shahri, 1760 tasi (11,5 %) Urganch, 1499 tasi (9,8 %) Xiva shahri hamda 1315 tasi (8,6 %) Xiva tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 15306 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4911 ta (32,1 %) - savdo, 3014 ta (19,7 %) - sanoat, 1726 ta (11,3 %) - qurilish, 1591 ta (10,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1195 ta (7,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 653 ta (4,3 %) - tashish va saqlash, 336 ta (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 220 ta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1660 tasi (10,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-noyabr oylarida 4451 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2598 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Urganch shahri (858 ta), Urganch tumani (603 ta), Xiva shahri (399 ta) va Xazorasp tumani (349 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangibozor (227 ta), Yangiariq (227 ta) hamda Bog'ot (251 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %. *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1631 ta, sanoat 895 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 587 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 381 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 51, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 81 ta hamda tashish va saqlashda 127 ta tashkil etilgan.


## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 2476 tani tashkil etib, ulardan 2372 tasi yoki 95,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiyligi soni o'rtacha 95,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot, birlikda

	01.12.2019 y.		2019 yil yanvar- noyabr
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2476</b>	<b>2372</b>	<b>1208</b>
Urganch sh.	487	455	161
Xiva sh.	319	306	159
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	145	137	86
Gurlan	85	85	70
Qo'shko'pir	240	227	101
Urganch	339	323	163
Xazorasp	47	45	11
Xonqa	283	279	139
Xiva	191	186	91
Shovot	94	88	61
Yangiariq	170	165	107
Yangibozor	76	76	59

**Oilaviy korxonalar soni, birlikda**




**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni  
tumanlar kesimida soni, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 26,3 % yoki 625 tasi sanoat, 25,5 % yoki 605 tasi savdo, 25,0 % yoki 592 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,7 % yoki 324 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 27 tasi qurilish, 0,9 % yoki 21 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 20 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,6 % yoki 13 tasi tashish va saqlash hamda 6,1 % yoki 145 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdoda, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 208</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	161	13,3
Xiva sh.	159	13,2
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	86	7,1
Gurlan	70	5,8
Qo'shko'pir	101	8,4
Urganch	163	13,5
Xazorasp	11	0,9
Xonqa	139	11,5
Xiva	91	7,5
Shovot	61	5,0
Yangiariq	107	8,9
Yangibozor	59	4,9

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi Urganch (163 ta), Urganch shahri (161 ta), Xiva shahri (159 ta) va Xonqa tumani (139 ta) hissasiga to'gri keladi. Aksincha, Xazorasp (11 ta), Yangibozor (59 ta), Shovot (61 ta) hamda Gurlan (70 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

## 2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,1 % yoki 351 tasi sanoat, 25,2 % yoki 305 tasi savdo, 20,4 % yoki 246 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 19,4 % yoki 235 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 8 tasi axborot va aloqa, 0,7 % yoki 8 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,6 % yoki 7 tasi qurilish, 0,3 % yoki 4 tasi tashish va saqlash, hamda 3,6 % yoki 44 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 135 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 65 taga yoki 92,9 % ga o'sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahrida 35 ta (jamidagi ulushi 25,9 %), Urganch 19 tani (14,1 %) va Xiva 12 ta (8,9 %) tumanlarida tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Yangiariq 5 ta (3,7 %), Qo'shko'pir 6 tani (4,4 %) Yangibozor 7 ta (5,2 %) hamda Xonqa 7 ta (5,2 %) tumanlarida tashkil etgan.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 83 tasi qo'shma, 52 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>135</b>	<b>83</b>	<b>52</b>
Urganch sh.	35	25	10
Xiva sh.	10	6	4
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	8	7	1
Gurlan	8	6	2
Qo'shko'pir	6	4	2
Urganch	19	6	13
Xazorasp	7	2	5
Xonqa	7	4	3
Xiva	12	5	7
Shovot	11	8	3
Yangiariq	5	4	1
Yangibozor	7	6	1

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 64 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 43 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahar (20 ta yoki jamidagi ulushi 31,2 %), Urganch (11 ta yoki 17,2 %) va Xiva (8 ta yoki 12,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shko'pir (1 ta yoki 1,6 %), Shovot (3 ta yoki 4,7 %) va Xazorasp (3 ta yoki 4,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


## 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Turkmaniston rezidentlari kapitali ishtirokida – 23 ta, Rossiya - 13 ta, Turkiya – 9 ta, Xitoy – 5 ta va Eron - 5 ta boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 9 ta korxonalar yangi tashkil etilgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 23 ta sanoat, 12 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10 ta qurilish, 9 ta savdo va 10 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

## 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



## Xorazm viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	30	21	9
Turkmaniston Respublikasi	26	16	10
Qozog'iston Respublikasi	9	4	5
Qirg'iziston Respublikasi	1	1	0
Ukraina Respublikasi	1	0	1
Belorus Respublikasi	1	1	0

Viloyatda MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi 22,2 %, Turkmaniston Respublikasi 19,3 %, Qozog'iston Respublikasi 6,7 %, Qirg'iziston, Ukraina va Belorus Respublikalarida 0,7 % ga to'g'ri kelmoqda.